

## DINLARARO TOTUVLIK VA RADIKALIZMNI YENGISH

Ma'mura Omonova

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Islomshunoslik fakulteti, 2-kurs,*

*Dinshunoslik yo'nalishi (88)715 19 03 omonovamamura30@gamil.com*

O'zbekiston azaldan ilm-u ma'rifat, taraqqiyot hamda madaniyat va, albatta, bag'rikenglik o'chog'i bo'lib kelmoqda. Bu yurtda qadimdan turli til, urf-odat, madaniyat, dunyoqarash va turmush tarziga ega bo'lgan, xilma-xil dinlarga e'tiqod qiluvchi turli xalqlar, millatlar yashagan va yashab kelmoqda. Turli millat va din vakillari mavjudligiga qaramay, bugungi kunda faoliyat yuritayotgan 16 diniy konfessiya va 130 dan ortiq millat va elat vakillarining erkin faoliyati, 2000 dan ortiq masjidlar, 10 dan ortiq diniy ta'lim muassasalarining mavjudligi bu yurtda vijon erkinligining to'la kafolatlanganligining isbotidir. Bundan tashqari, turli din vakillarining o'z diniy amallarini emin-erkin bajarayotganliklari, diniy marosimlarini tahlikasiz o'tkazayotganliklarini ham alohida ta'kidlash mumkin.

Shu o'rinda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Bosh komissari Zayd al-Husaynning bugungi dinlararo va millatlararo notinchlik bo'lib turgan tahlikali kunlarda O'zbekistondagi mavjud dinlararo va millatlararo totuvlik boshqa davlatlar uchun ibrat bo'lishga loyiq ekanligi haqidagi fikrlarini ham yodga olish o'rinlidir. Shuni ham aytib o'tish joizki, mamlakatimizda dinlararo totuvlik diniy bag'rikenglik tamoyillarining bu kabi mustahkam asosda ekanligi turli sabablar bilan izohlanadi.

Avvalo, O'zbekiston aholisining ko'p qismini Islom diniga e'tiqod qiluvchi aholi tashkil etishini inobatga olgan holda Qur'oni Karimning 50 dan ortiq surasidagi yuzlab oyatlarda musulmonlar boshqa din vakillariga nisbatan murosalari, bag'rikeng munosabatda bo'lishi, tinchlikparvarlik tamoyilini targ'ib qilishi kerakligi haqida da'vatlar mavjudligidir.

Qolaversa, mamlakat rahbarlarining, xususan, Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning bu sohadagi boshlab bergan mehnatlarining samarasidir. Sobiq davlatimiz rahbari bu borada o'z oldiga hayotning o'zi turli millat, e'tiqod va din vakillari o'rtasida o'zaro hurmat hukm surgan sharoitdagina umumiy xonadon, umumiy kelajak, farzandlar kelajagini qurish mumkinligini ko'rsatib turganligi haqidagi shiorni maqsad qilib olgan edilar hamda shu asnodan o'z faoliyatlarini olib borganlar.

Biroq shunga qaramay, ijtimoiy hayotda chuqur o'zgarishlar sodir bo'layotgan hozirgi davrda tinchlikka, diniy bag'rikenglikka, umuman olganda, jamiyat barqarorligiga tahdidlar ham yo'q emas, albatta. Bu kabi tahdidlar goh diniy mutaassiblik, goh terrorizm, goh zo'rovonlik va gohida esa radikalizm ko'rinishida uchrab turibdi. Insoniyat esa bu kabi xurujlardan hali hamon azob chekmoqda. Chunki yuqoridagi holatlarning mavjudligi, avvalo, tinchlik va xavfsizlikka, qolaversa, jamiyat hamda inson huquqlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Shuni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, bu kabi noxush holatlar kelib chiqishining sabablari mavjud va bu sabablar mavjud bo'lgani kabi ularni jamiyat hayotidan

yo'qotish,ildiz otgan tomirlarini butunlay yo'q qilib tashlash yo'llari ham bor. Fikrimizning isboti o'laroq, bunga radikalizmning shakllanishi hamda deradikallashtirish jarayonlarining muvaffaqiyatini keltirish mumkin.Radikalizm muayyan shaxs yoki guruhning mavjud ijtimoiy,siyosiy va madaniy holatini tubdan va murosasiz o'zgartirish istagidan iborat jarayondir.Bu kabi jarayonlar diniy yo'nalishda ham kuzatilishi mumkin. Bunda shaxs boshqa diniy qarashlarga va ularga e'tiqod qiluvchilarga keskin, murosasiz munosabatda bo'lib, uni zo'rlik yo'llari bilan o'zgartirish payida bo'ladi.

Bu holat jamiyatdagi mavjud boshqa diniy konfessiyalarga keskinlik bilan yondashish,hatto bir din doirasida bo'la turib,boshqa fiqhiy yoki aqidaviy yo'nalishdagi qarash egalarini o'ziga raqib sifatida qabul qilishda namoyon bo'ladi va, albatta, jamiyat barqarorligiga putur yetkazadi. Bu tahdidning shakllanishidagi omillar bolaning tarbiyasida yo'l qo'yilgan xatolar,shaxsning o'ziga xos xususiyatlari,oiladagi muhit va yana shu kabi bir qator sabablar bilan bog'lanadi.

Radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolgan shaxslarni bu holatdan qutqarish jarayonlarining muvaffaqiyati esa maxsus amaliyotlar,puxta o'ylangan dasturlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday dasturlar esa radikal g'oyalar ta'siriga tushgan shaxslar bilan bevosita muloqot shaklida bo'lishi ahamiyatga molikdir.

Turli kommunikativ harakatlar,munozara,ochiq suhbatlar,psixolog hamda mutaxassisligi shu jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan shaxslarning ko'rsatmalari va tavsiyalari orqali muammoni ma'lum miqdorda yengib o'tish mumkin.Bunda ushbu shaxslarning diniy motivlarini tushunish va ularni tahlil qilish,ilgari surayotgan fikrlarini tinlagach,uning noto'g'ri ekanligi borasida atroflicha tushuntirishlar olib borish hamda huquqiy jihatdan qonunga xilof holat ekanligini va uning salbiy oqibatlarini aytish maqsadga muvofiqdir. Deradikallashtirishning muvaffaqiyati shu va shu kabi ishlardadir.

Jadallashib borayotgan tezkor axborot asrida ayrim manfaatlarni ko'zlagan holda ushbu yot g'oyalarni tinchlikdek ulug' ne'matga rahna solmoqchi bo'lib qo'llab-quvvatlayotganlarning mavjudligi esa eng achinarli holatdir.Bunday holatlarda bizlardan hushyorlik,sergaklik,yot g'oyalarga ergashib ketmaslikdek mas'uliyat talab etiladi. Zotan,bu kabi holatlar jamiyatda mavjud ekan,biz yoshlar doim uyg'oq turishimiz,vatanni asrab-avaylashimiz darkor.Zero,Vatanni sevmiq-iymondandir!

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Husniddinov Z. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik. "Toshkent islom universiteti"nashriyot-matbaa birlashmasi 2006.

2.Ochildiyev A. Bag'rikenglik – barqarorlik va taraqqiyot omili. "Toshkent islom universiteti"nashriyot-matbaa birlashmasi 2007.